

**“O‘zavtosanoat” AJ tomonidan 2025 yil yanvar-sentabr oylarida
amalga oshirilgan ishlar yuzasidan
MA’LUMOTNOMA**

“O‘zavtosanoat” AJ tarmoq korxonalari tomonidan 2025-yil 9 oylikda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi belgilangan **49 503,8 mlrd so‘m** prognoz, amalda **51 105,3 mlrd so‘m**, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **108,7 foizga** etib, belgilangan reja ko‘rsatkich bajarilishi **103,2 foizni** tashkil etdi.

Hisobot davrida, **278 409 dona** “Uzauto Motors” AJda engil avtomobillari va **13 730 dona** BYD avtomobillari ishlab chiqarildi.

Xorijiy davlatlarga **366,3 mln dollarlik** eksport amalga oshirildi. Mahsulotlar kesimida **275,8 mln dollarlik** yengil avtomobillar hamda **90,5 mln dollarlik** ehtiyot qismlar, qishloq xo‘jaligi texnikalari va boshqa mahsulotlar eksporti amalga oshirildi.

“O‘zavtosanoat” AJ tomonidan umumiy qiymati **218,4 mln dollarlik 21 ta** investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. 2025-yil 9 oylikda ushbu loyihalar doirasida **59,9 mln dollar** investitsiyalar o‘zlashtirildi (rejaga nisbatan **129,2 foiz**), shundan **43,5 mln dollar** (rejaga nisbatan **110 foiz**) to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga.

Mahalliy lashtirish dasturi doirasida **3,5 trln so‘mlik 13 turdagi** mahsulotlar ishlab chiqarildi (rejaga nisbatan **126,2 foiz**).

Yirik sanoat korxonalarining tannarxi belgilangan prognoz ijrosi bo‘yicha **1 757,0 mlrd so‘mga** (rejaga nisbatan **104,5 foiz**) kamaytirildi.

2025-yil 9 oylik yakuni bo‘yicha rentabellik darajasi **7,6 foizni** tashkil etdi.

Tarmoq korxonalari tomonidan jami **986 ta** yangi ish o‘rinlar yaratildi (rejaga nisbatan **131,6 foiz**).